


Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Shamshon
Xudoning
bahodir
xizmatchisi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2013 Bible for Children, Inc.
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Qadim zamonda Isroil
yerida Manoh ismli odam
rafiqasi bilan yashardi.
Ularning farzandi
yo'q edi.




Bir kuni Xudoning farishtasi Manoh xonimga namoyon bo'ldi. Farishta unga: "Senga Xudo ajoyib qobiliyatli farzand beradi," - dedi.




Manoh xonim bu yangilikni eri bilan bo'lishdi. Shunda janob Manoh Xudoga ibodat qilib, dedi:


"Xudovand biz farzandimiz ushun nima qilishimiz mumkinligini bizga o'rgat."








Shunda farishta ularga
yana namoyon bo'lib:
"Farzandingiz hech
qachon sochini
kesmasligi
va hech
qachon
sharob
ichmasligi
kerak.






Xudovand uni hakam
bo'lish uchun tanlagan.
U Isroil xalqining
etakchisi
bo'ladi",
- dedi.





Xudoning xalqi haqiqatdan ham yordamga muhtoj edi.





Ular Xudoni
unutib, Falastinlik
dushmanlaridan juda qo'rqishardi.
Ammo Xudovand Isroil xalqining
ibodatini eshitar edi.





Shunday qilib,
Manoh xonim
o'g'il tug'di va
uning ismini
Shamshon
qo'ydi. Bola
katta bo'ldi.
Xudovand uni
marhamatladi.





Shamshon juda kuchli bo'lib voyaga etdi. U bir kuni hech qanday qurolsiz sher bilan kurashib, uni o'ldirdi.





Bir oz vaqt
o'tgach Shamshon
o'lik sher ustidagi ari
uyasidan asal tatib ko'rdi.





Shunda
u topishmoq to'qidi:
"Yirtqich oziqlanuvchidan
ozig keldi va kuchlidan
shirin bol keldi."





Bu topishmoqning
ma'nosini hech kim bilmasdi.





Ammo Shamshonni
Falastinlik bo'lgan
xotini buning ma'nosini
o'z do'stlariga aytib berdi.





Bundan Shamshonning
juda ham jahli chiqdi.




Falashtinliklar Shamshonning xotinini uning do'stiga xotin qilib berishdi. Bundan Shamshonning battar jahli chiqdi. U qanday qilib o'ch olish haqida o'yladi.



Shamshon 300ta tulki tutdi.
Tulkilarni ikkita ikkita qilib,
dumlarini bir-biriga tugdi.
Tugilgan ikki dum
o'rtasiga
olovli
tayoqlarni
o'rnatdi.



So'ng ularni Falastinliklarni bug'doy



dalasiga
qo'yib yubordi.




Endi Falastinliklar o'ch olish payiga tushdi. Shamshon o'zini tuttirib, bog'latishga yo'l qo'yib berdi.



Lekin Xudoning Ruhi
Shamshonni to'ldirardi.
U arqonni uzib, o'lik
eshaklarning suyagini
yig'ib, ular yordamida
1000ta dushmanni
o'ldirdi.



Falastinliklar Shamshonni tutib olish
yo'llarini qidirardi. Bir kuni ular
Shamshonni qopqonga tushirib,



qamab
qo'yishdi.




Shamshon Xudoga
itoat etib, quloq
solasagina uning
kuchi saqlanib
qolardi.

Ammo u
Xudoga
quloq
solmadi.



U o'zining kuchi sochidaligini
Falastin ayg'oqchisi Dalila
ismli ayolga aytib
berdi. Shamshon
uxlab yotganda
Dalila uning
sochini
kesdi.







Falastin
harbiylari
Dalilaning
uyida
Shamshonga
hujum qilishdi.




Shamshon kurashishga
harakat qildi,
ammo kuchi yo'q
edi. Shunda
dushmanlar
uning ko'zini
o'yib olishdi.





Ko'r va nimjon bo'lib
qolgan Shamshon
Falastinliklar
quliga aylandi.
Ular uning
ustidan kulib,
mazah qilishardi.




Bir kuni Falstinliklar
bayram qilardi.
Ular o'zlarining
Dagon nomli
butlarini
Shamshonni
tutganlari uchun
madhlashardi.




Ularning hammasi
burxonada ichib,
mast bo'lib,
Shamshonni
olib kelishni
buyurishdi.




Bir bola uni olib kelib, butxonaning
ustunlarini ushlatib qo'ydi.




Butxonaning tepasida 3000ta va
ichida undan ham ko'p Falastinliklar
bor edi.




Ularning hammasi Shamshonni
mazah qilishardi.



Shamshon tutqunlikda o'tirganda,
uning sochi o'sib ketgandi.




Shuning uchun u Xudoga ibodat qilib,
dedi: "Qudratli Parvardigor, ...



... o'yilgan ko'zlarimga o'ch olishim
uchun menga yana bir marta kuch


ato et."




Ho'sh, Xudo Shamshonga
kuch beradimi?
Shamshon ilojsiz
narsani bajara
oladimi?
Albatta
ha!



Shamshon bor kuchini yig'ib,
butxonani ushlab
turgan ustunlarni
pacha-parcha
qilib tashladi.



Shunda butxona
ichidagi hamma
Falastinliklar,
shuningdek
Shamshon
ham halok
bo'ldi.



Shamshon Xudoning bahodir
xizmatchisi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Hakamlar 13-16

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

